



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 15-06-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

208569 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oq-tepa mahallasi, Yangishahar ko'chasi manzilidagi yangi hududda (3,64 ga) "Ko'p qavatli turar-joy binolari" (A, A1, C*, D3 bloklari va yer osti avtoturargohi).	
Buyurtmachi:	TSC-HK-INVESTMENT MCHJ XORIJIY KORXONA
Bosh loyihachi:	"ARX-DIZAYN SAN'ATI" QO'SHIMCHA MAS'ULIYATLI JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	002042

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Hokimining 2021-yil 7-iyulda berilgan 678-sonli qarori.

1.2. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 06-sentyabrda berilgan 1726-1726266-49706-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2022-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.4. «Qishloqqurilishloyiha» MChJ tomonidan 2022-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 2020-yil 17-iyunda berilgan 0940-sonli texnik sharti.

1.6. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2020-yil 01-iyunda berilgan 270/4-856-sonli texnik sharti.

1.7. "Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2022-yil 16-avgustda berilgan 270/4-2188-sonli xati.

1.8. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 2022-yil 07-sentyabrda berilgan 60657-T-sonli texnik sharti.

1.9. "O'zbektelekom" AJ tomonidan 202-yil 28-iyunda berilgan DW209-sonli texnik sharti.

1.10. Loyiha-smeta hujjatlarni ishlab chiqish uchun 2022-yil 30-mayda tuzilgan 48-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

- bosh reja (GP);
- arxitektura yechimlari (AR);
- konstruktiv yechimlar (KJ);
- elektr ta'minoti (EO);
- ichimlik suvi va oqava suv tarmog'i (VK);
- isitish va shamollatish tizimi (OV);
- xavfsizlik tizimi (OS);
- aloqa tizimi (SS);
- Avtomatik yong'in signalizatsiyasi (APT);
- yong'inni avtomatik o'chirish tizimi;
- konstruktiv hisobot;
- bino energetik pasporti;
- bino teplotexnik hisobi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino:

Qurilish hajmi: 154593.2 m³

Bino qavati: 14

Qurilish maydoni: 9520.6 m²

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Toshkent shahrining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasi bo'yicha uchastkaning seysmikligi 8 ballga baholangan.

Muhandis-geologik xulosaga ko'ra;

MGE1- lessimon loyli tuproq, jigarrang, yengildan og'irgacha, bosim ostida (tabiiy tarkib bilan) cho'kuvchan bo'lgan lessga o'xshash qumloqlar. Ushbu elementning tuproqlari yer osti suvlari sathidan yuqorida joylashgan. Quvvati 10,5 -16,0 m.

Tuproqning cho'kuvchanligi - II (ikkinchi).

MGE2- lessimon loyli tuproq, jigarrang, yengildan og'irgacha. Ushbu elementning tuproqlari yer osti suvlari sathidan pastda joylashgan. Ushbu elementning tuproqlari cho'kmaydi. Quvvati 8,0 -16,5 m.

MGE3- toshli less, rangi qizg'ish-jigarrang, juda kam quvvatli, juda g'ovakli, qattiq, yuqori qismi yorilib ketgan, egilgan, yuqori qismi silliq emas. Quvvati 22.0m.

Yer osti suvlari -(2022 yil iyul-sentyabr) relyefiga qarab yer yuzasidan 13,5-19,0 m chuqurlikda aniqlangan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi- 0,70m.

3.2. Arxitektura - rejalashtirish yechimlari.

Loyihaning ushbu bosqichida quyidagi bloklar qurilishi ko'zda tutilgan:

- blok-A - 1 ta;
- blok-A* - 3 ta;
- blok-A1 - 1 ta;

- blok-A1* - 1 ta;
- blok-C* - 4 ta;
- blok-D3 - 2 ta
- yer osti avtoturargoh.

Blok-A – yerto‘lali, 13 qavatli va terrasali, burchak shaklida bo‘lib, umumiy o‘lchalamri 27.0x25.8m. Yerto‘la balandligi 4.8m, birinchi qavat baladligi 4.5m, 2-12-qavatlar balandligi 3.3m, 13-qavat balandligi 3.35m, terrasa balandligi 3.4m (poldan shiftgacha).

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

- yerto‘la qismida – zinapoya maydoni, lift maydoni, tambur, yo‘lak, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari xonalari va h.k.;
- birinchi qavatda - zinapoya maydoni, lift maydoni, xoll, tijorat maydonlari;
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni	-	629.34 m ²
Umumiy maydoni	-	7193.2 m ²
Qurilish hajmi	-	28264.3 m ³ .

Blok-A1 – yerto‘lali, 13 qavatli va terrasali, burchak shaklida bo‘lib, umumiy o‘lchalamri 25.0x23.8m. Yerto‘la balandligi 4.54m, birinchi qavat baladligi 3.34m, 2-12-qavatlar balandligi 3.04m, 13-qavat balandligi 3.09m, terrasa balandligi 3.04m (poldan shiftgacha).

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

- yerto‘la qismida – zinapoya maydoni, lift maydoni, tambur, yo‘lak, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari xonalari va h.k.;
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni	-	536.95 m ²
Umumiy maydoni	-	6982.7 m ²
Qurilish hajmi	-	27368.4 m ³ .

Blok-C* – yerto‘lali, 14 qavatli va terrasali + texnik qavatli, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, umumiy o‘lchalamri 15.6x24.6m. Yerto‘la balandligi 4.54m, birinchi qavat baladligi 3.34m, 2-14-qavatlar balandligi 3.04m, 13-qavat balandligi 3.04m, terrasa balandligi 3.04m (poldan shiftgacha).

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

- yerto‘la qismida – zinapoya maydoni, lift maydoni, tambur, yo‘lak, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari xonalari va h.k.;
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qurilish maydoni	-	475.8 m ²
Umumiy maydoni	-	5588.1 m ²
Qurilish hajmi	-	27460.2 m ³ .

Blok-D3 – yerto‘lali, 15 qavatli va terrasali, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 15.6x34.4m. Yerto‘la balandligi 4.54m, birinchi qavat baladligi 3.34m, 2-14-qavatlar balandligi 3.04m, terrasa balandligi 3.04m (poldan shiftgacha).

Bino qavatlarida quyidagilar joylashgan:

- yerto‘la qismida – zinapoya maydoni, lift maydoni, tambur, yo‘lak, xonadonlar uchun yordamchi xonalar va h.k.;
- yuqori qavatlarda – xonadonlar.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni	-	592.6 m ²
Umumiy maydoni	-	7583.4 m ²
Qurilish hajmi	-	34464.4 m ³

Yer osti avtoturargoh - bir qavatli, murakkab shaklga ega bo'lib, umumiy o'lchamlari 72.8x118.5m. Balandligi 3.3m.

Avtoturargoh seysmik chok bilan 5 ta zonaga ajratilgan va 217 ta avtomobilga mo'ljallangan.

Loyihada avtomobillar to'xtash joyiga kirish va chiqish uchun 2 ta pandus (rampa) ko'zda tutilgan. Pandus (rampa) kengligi 7350 mm, qiyaligi $i=0,168$, piyodalar o'tish yo'lagi kengligi 1050mm.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qurilish maydoni	-	7193.52 m ²
Qurilish hajmi	-	37046.6 m ³

Binoni tashqi pardoqlash:

Tashqi devorlar - FSP panellari.

Poypesh - FSP panellari.

Xonadonlarni ichki pardoqlash:

Ichki devorlar - suvoq, shpaklevka, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Shift - gipsokarton, suv emulsiyasi bilan bo'yalgan.

Eshiklar - metall, MDF.

Oyna - alyumin profil.

Pol - keramogranit plitalar, tarket, beton.

3.3. Konstruktiv yechimlari.

Binolarning konstruktiv yechimi - monolitik temirbeton karkas.

Poydevor asosi - diametri 600 mm, uzunligi 34000mm bo'lgan temirbeton qoziqlar.

Poydevori - qalinlikdagi 1000 mm bo'lgan monolitli temirbeton plita.

Yerto'la tashqi devorlari - qalinligi 400mm bo'lgan monolit temirbeton.

Yuqori qavatlar tashqi devorlari - qalinligi 250mm bo'lgan gazoblok.

Ichki devorlar - qalinligi 100mm bo'lgan gazoblokdan iborat.

Orayopmasi - qalinligi 180mm bo'lgan monolitli temirbeton.

Lift shaxtasi - qalinligi 200mm bo'lgan monolit temirbeton.

Zinapoya - monolit temirbeton.

Tom qismi - tekkis.

3.4. Yong'in xavfsizligi.

Yong'inga qarshiligi - I toifa.

Funksional yong'in xavf turi - F1.3.

Qurilish konstruksiyaning yong'in xavfi sinfi - K0.

Konstruktiv yong'in xavf turi - S0.

3.5. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo'riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko'rsatilgan.

Devorlar tashqi tomondan 100 mm qalinlikdagi jun-mineral qoplama bilan qoplangan.

Bundan tashqari, har bir bino tom qismida har birining quvvati 280 Vt bo'lgan umumiy 16 dona quyosh panellar o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi, yong'inni avtomatik o'chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshirig'i).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi (2023-yil 12-apreldagi 68834-sonli xulosa).
- Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (2020-yil 24-iyuldagi 04-746-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi);
- Toshkent shahar Favqulotda vaziyatlar boshqarmasining 2022-yil 29-sentyabrdagi 23/11-4421-sonli xulosasi;
- O'zbekiston Respublikasi turizm va Madaniy Me'ros vazirligi huzuridagi Madaniy Me'ros agentligi Toshkent shahar Madaniy Me'ros Boshqarmasining 17.11.2020-yildagi 413-sonli va 01.02.2023-yildagi 74-sonli xatlari.
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T. O'rozboev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (12.01.2024-yildagi 20-3-sonli xati va 2-sonli ilmiy xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oq-tepa mahallasi, Yangishahar ko'chasi manzilidagi yangi hududda (3,64 ga) "Ko'p qavatli turar-joy binolari" (A, A1, C*, D3 bloklari va yer osti avtoturargohi) ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Avazov Xashimjon To'rabayevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Maxmudov Sobir Rashidovich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna,
Musayev Rustam Talatovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich